



TIJORAT BANKLARIDA AKTIV VA PASSIVLARNI MUVOFIQLASHTIRISH ASOSIDA MOLİYAVIY BARQARORLIKNI MUSTAHKAMLASH

Saidov Doniyor Abdullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

«Bank ishi» kafedrası dotsenti

<https://orcid.org/0009-0007-3605-2274>

Annotatsiya. Ushbu tezisda tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda aktiv va passivlarni muvofiqlashtirib boshqarishning ahamiyati tadqiq etilgan. O'zbekiston bank tizimining 2021–2025 yillar davomida har yilning 1 yanvar holatiga aktivlar, kreditlar, depozitlar, kredit–depozit nisbati, yuqori sifatli likvid aktivlar, likvidlikni qoplash koeffitsienti (LCR) va sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti (NSFR) dinamikasi tahlil qilingan. Aktivlar va passivlar o'rtasidagi muddat, foiz, valyuta va moliyalashtirish manbalari bo'yicha nomutanosibliklarni kamaytirishga qaratilgan ALM mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, moliyaviy barqarorlik, aktivlar, passivlar, ALM, likvidlik, kredit–depozit nisbati, LCR, NSFR, GAP tahlili, foiz riski, barqaror moliyalashtirish.

Kirish

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligi bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi, kapital va likvidlik zaxiralarini yetarli darajada saqlashi, risklarni qoplash hamda uzoq muddatli rivojlanishni moliyalashtirish qobiliyati bilan belgilanadi. Bunda aktiv operatsiyalarining daromadlilik qanchalik muhim bo'lsa, ushbu aktivlarni moliyalashtirish manbalarining muddati, qiymati va barqarorligi ham shunchalik muhimdir. Aktivlar va passivlar o'rtasidagi nomutanosiblik qisqa muddatli likvidlik tanqisligi, resurslar qiymatining oshishi, sof foiz marjasining qisqarishi va moliyaviy barqarorlikning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli Asset and Liability Management (ALM) bank risk-menejmentining alohida yo'nalishi emas, balki likvidlik, foiz, valyuta va moliyalashtirish risklarini yagona tizimda boshqarish mexanizmi sifatida qaralishi lozim[1].

Basel III doirasida banklarning qisqa muddatli likvidligini baholash uchun Liquidity Coverage Ratio (LCR), uzoq muddatli barqaror moliyalashtirishni baholash uchun esa Net Stable Funding Ratio (NSFR) qo'llanadi. Har ikki koeffitsient uchun minimal talab 100 foizni tashkil etadi. Biroq normativ darajalarning bajarilishi aktiv va passivlarning muddatlar, qayta narxlanish va valyuta tarkibi bo'yicha to'liq muvofiqligini anglatmaydi[2]. Shu bois ALM tahlilini kredit–depozit nisbati, kumulyativ likvidlik GAPi, repricing GAP, duration GAP va depozit bazasining konsentratsiyasi kabi ko'rsatkichlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank tizimi statistikasi asosida 2022–2026 yillar davomida har yilning 1 yanvar holatiga 5 ta kuzatuvdan foydalanildi[3]. Gorizont va qiyosiy tahlil, moliyaviy koeffitsientlar usuli, trend tahlili hamda aktiv va passivlar mutanosibligini baholash usullari qo'llanildi. Asosiy indikatorlar sifatida jami aktivlar, kreditlar, depozitlar, kredit–depozit nisbati, yuqori sifatli likvid aktivlar (HQLA), LCR va NSFR qabul qilindi.

Natijalar va muhokama

Bank tizimida aktiv va passivlarning 5 yillik dinamikasi depozit bazasining kredit portfeliga nisbatan yuqori sur'atlarda kengayganini ko'rsatadi. 2022 yil 1 yanvardan 2026 yil 1 yanvargacha jami aktivlar 444,9 trln so'mdan 924,8 trln so'mga, kreditlar 326,4 trln so'mdan 604,0 trln so'mga, depozitlar esa 156,2 trln so'mdan 417,3 trln so'mga yetgan. Shu davrda aktivlar 107,8 foizga, kreditlar 85,1 foizga, depozitlar 167,1 foizga o'sgan. Depozitlarning kreditlarga nisbatan tezroq o'sishi resurs bazasining ichki manbalar hisobiga mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

1-jadval

Bank tizimi aktivlari, kreditlari va depozitlari, (yil boshiga) [4]

Ko'rsatkich	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025	01.01.2026
Jami aktivlar, trln so'm	444,9	556,7	652,2	769,3	924,8
Kreditlar, trln so'm	326,4	390,0	471,4	533,1	604,0
Depozitlar, trln so'm	156,2	216,7	241,7	308,7	417,3
Kredit–depozit nisbati, %	209	180	195	173	145

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, kredit–depozit nisbati 2022 yil 1 yanvardagi 209 foizdan 2026 yil 1 yanvarda 145 foizgacha pasaygan, ya'ni 64 foiz punktga yaxshilangan. Bu depozitlar kredit portfeliga nisbatan tezroq o'sgani natijasidir. Biroq kreditlar va depozitlar o'rtasidagi absolyut farq 2026 yil 1 yanvarda ham 186,7 trln so'mni tashkil etmoqda. Demak, nisbiy ko'rsatkich yaxshilangan bo'lsa-da, bank tizimi kredit aktivlarini moliyalashtirishda depozitlardan tashqari boshqa barqaror resurs manbalariga ham ehtiyoj sezadi.

Dinamikada 2024 yil 1 yanvar alohida e'tiborga loyiq: kredit–depozit nisbati 195 foizga ko'tarilib, kreditlar va depozitlar o'rtasidagi absolyut farq 229,7 trln so'mga yetgan. Keyingi ikki yilda depozit bazasining jadal o'sishi ushbu nomutanosiblikni yumshatgan. Bu holat ALM nuqtai nazaridan resurslarni diversifikatsiya qilish va depozitlarning barqaror qismini ko'paytirish moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

2-jadval

Bank tizimi likvidlik ko'rsatkichlari, (yil boshiga) [5]

Ko'rsatkich	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025	01.01.2026
HQLA, trln so'm	76,0	104,5	96,9	133,2	189,1

Ko'rsatkich	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025	01.01.2026
HQLA / jami aktivlar, %	17,7	19,4	14,9	17,3	21,1
LCR, %	189,6	211,6	164,8	193,8	207,5
NSFR, %	115,4	115,6	111,8	115,3	119,9

Likvidlik ko'rsatkichlari tahlili 5 yil davomida LCR va NSFR belgilangan 100 foizlik minimal me'yordan yuqori bo'lganini ko'rsatadi. LCR 2022 yil 1 yanvarda 189,6 foizdan 2023 yilda 211,6 foizga o'sgan, 2024 yil 1 yanvarda 164,8 foizga pasaygan va 2026 yil 1 yanvarga kelib 207,5 foizga tiklangan. NSFR nisbatan barqaror dinamikaga ega bo'lib, 115,4 foizdan 119,9 foizga oshgan. Bu bank tizimida uzoq muddatli aktivlarni barqaror resurslar bilan qoplash imkoniyati yaxshilanganini anglatadi.

Yuqori sifatli likvid aktivlar hajmi 76,0 trln so'mdan 189,1 trln so'mga, ya'ni qariyb 2,5 barobarga oshgan. HQLAning aktivlardagi ulushi esa 2024 yil 1 yanvarda 14,9 foizgacha pasayganidan so'ng 2026 yil 1 yanvarda 21,1 foizga ko'tarilgan. Bu o'zgarish bank tizimining qisqa muddatli likvidlik shoklariga qarshi buferi kuchayganini ko'rsatadi.

2024 yil 1 yanvar holatida to'rtta ko'rsatkichning bir vaqtda yomonlashgani alohida e'tiborga loyiq: kredit-depozit nisbati 195 foizga ko'tarilgan, LCR 164,8 foizga, NSFR 111,8 foizga tushgan, HQLAning ulushi esa 14,9 foizga qisqargan. To'rt ko'rsatkichning bir yo'nalishda o'zgarishi tasodifiy emas - u bank tizimida qisqa muddatli likvidlik taranglikning izchil epizodi bo'lganini ko'rsatadi.

3-jadval

Bank guruhlari bo'yicha kredit-depozit nisbati[6]Ko'rsatkich	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025	01.01.2026
Davlat ishtirokidagi banklar, %	269	240	268	237	190
Boshqa banklar, %	89	80	118	108	98
Farq, f.p.	180	160	150	129	92

3-jadval bank guruhlari o'rtasidagi moliyalashtirish modeli sezilarli darajada farq qilishini ko'rsatadi. Davlat ishtirokidagi banklarda kredit-depozit nisbati 2022 yil 1 yanvarda 269 foiz bo'lgan bo'lsa, 2026 yil 1 yanvarda 190 foizgacha pasaygan. Boshqa banklarda esa ushbu ko'rsatkich 89 foizdan 98 foizga o'zgargan. 5 yil davomida ikki guruh o'rtasidagi farq 180 foiz punktdan 92 foiz punktga qisqargan.

Guruhlar o'rtasidagi yaqinlashuv asosan bir tomonlama kechgan: davlat ishtirokidagi banklarda ko'rsatkich 79 foiz punktga yaxshilangan, boshqa banklarda esa 9 foiz punktga yomonlashgan. Shu bois yaqinlashuvni umumiy takomillashuv sifatida emas, davlat banklari moliyalashtirish modelining o'zgarishi sifatida talqin qilish to'g'riroq bo'ladi.

Shunga qaramay, davlat ishtirokidagi banklarda 190 foizlik kredit-depozit nisbati kredit aktivlarining katta qismi depozitlardan tashqari resurslar - davlat mablag'lari, tashqi kredit liniyalari, banklararo resurslar yoki boshqa uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari hisobiga qoplanayotganini ko'rsatadi. Bu resurslar barqaror bo'lishi mumkin, ammo ularning qiymati, valyuta tarkibi va qayta moliyalashtirish shartlari ALM doirasida alohida nazorat qilinishi lozim.

Shu bois bank moliyaviy barqarorligini baholashda faqat LCR va NSFRga tayanish yetarli emas. Banklar aktivlar va passivlarni 1 kun, 7 kun, 30 kun, 3 oy, 6 oy, 1 yil va 1 yildan ortiq muddat intervallari bo'yicha taqsimlab, kumulyativ GAP limitlarini belgilashi zarur. Foiz riski bo'yicha esa qayta narxlanuvchi aktiv va passivlar o'rtasidagi tafovut bankning sof foiz daromadi hamda kapitalning iqtisodiy qiymatiga ta'siri bilan birgalikda baholanishi kerak.

Tahlillar asosida quyidagi tavsiyalarni shakllantirdik: tijorat banklarida aktiv va passivlarni muddatlar bo'yicha dinamik GAP-modeli asosida boshqarish va har bir vaqt intervali uchun ichki limitlar belgilash, Kredit-depozit nisbatini faqat hisobot ko'rsatkichi sifatida emas, balki bank biznes modeliga mos maqsadli koridor asosida boshqarish; koridordan chiqish holatlarini ALCO uchun erta ogohlantirish signali sifatida belgilash, Uzoq muddatli kreditlar o'sishini NSFR prognozlari bilan bog'lash va aktivlar o'sish sur'ati barqaror moliyalashtirish manbalari o'sishidan yuqori bo'lgan hollarda qo'shimcha kapital yoki resurs choralarini ishga tushirish, Depozit bazasining barqarorlik indeksini joriy etish; unda muddatli depozitlar ulushi, jismoniy shaxslar mablag'lari, yirik depozitlar konsentratsiyasi, depozitlarning o'rtacha saqlanish muddati va valyuta tarkibini inobatga olish, Davlat ishtirokidagi banklar uchun kredit-depozit nisbatini bosqichma-bosqich pasaytirish va ichki depozit bazasini kengaytirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilash kabilar.

Xulosa qilib aytganda, tahlil natijalari 2021–2025 yillarda O'zbekiston bank tizimida aktiv va passivlarni moliyalashtirish mutanosibligi umumiy jihatdan yaxshilanganini ko'rsatdi. Depozitlar hajmining 167,1 foizga o'sishi kreditlar o'sishidan sezilarli yuqori bo'lib, kredit-depozit nisbati 209 foizdan 145 foizgacha pasaygan. LCR 207,5 foiz va NSFR 119,9 foizga yetgani bank tizimida qisqa va uzoq muddatli likvidlik buferlari yetarli darajada saqlanayotganini ko'rsatadi.

Biroq davlat ishtirokidagi banklarda kredit-depozit nisbatining 190 foiz darajasida qolishi aktivlarni moliyalashtirish manbalari tarkibi va muddatlar muvofiqligini yanada takomillashtirish zaruratini saqlab qolmoqda. Shuning uchun tijorat banklarida ALMni normativlarga rioya qilish vositasidan strategik risk-boshqaruv tizimiga aylantirish, dinamik GAP tahlili, foiz va valyuta stress-testlari, depozit barqarorligi indeksi hamda prognoz NSFR/LCR ko'rsatkichlarini birlashtirish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saunders A., Cornett M.M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. — New York: McGraw-Hill, 2021.
2. Basel Committee on Banking Supervision. Basel Framework: Liquidity Coverage Ratio and Net Stable Funding Ratio. — Basel: Bank for International Settlements, 2023.